



TASDIQLAYMAN

“Shurtan GKM” MCHJ

Bosh direktor o‘rinbosari

J. Xalimov

«10» 05 2023 y

Reg: 074/019-3253

XIZMAT KO‘RSATISHGA TEXNIK TOPSHIRIQ

“Sho‘rtan GKM” MCHJ tasarrufidagi “Lochin” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi
aktivlarini baholash uchun

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Baholash obyekti

“Shoʻrtan gaz kimyo majmuasi” MChJ ga tegishli quyidagi manzilda joylashgan bolalar sogʻlomlashtirish oromgohi:

- “Lochin BSO” – Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, “Miraki” qoʻrgʻoni;

1.2. Xizmat koʻrsatishga asos va maqsad

Asos: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25 martdagi 143-F/6-son farmoyishi, Oʻzbekneftgaz AJning 2023 yil 14-apreldagi 38-sonli qarori.

“Shoʻrtan gaz kimyo majmuasi” MChJ ning 03.05.2023 yildagi 016/121-i/ch buyrugʻi

Maqsad: “Lochin BSO”ning koʻchmas mulk obyektlari joriy bahosini aniqlash.

2 Qoʻllaniladigan baholash standartlari.

Oʻzbekiston Respublikasining tegishli baholash standartlari

3. Mustaqil baholovchi tashkilotga qoʻyiladigan talablar.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etilishi shart:

- Davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomaning nusxasi, Oʻzbekiston Respublikasida baholash faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya nusxasi, sugʻurta polisi taqdim etilishi shart.;

- ish tajribasi va baholovchining mijozlari. Ushbu boʻlim eng yirik mijozlar roʻyxatini (5-6 ta korxonalar) oʻz ichiga olishi kerak, ular hisobotining ishonchliligi baholovchi tomonidan oʻrganilgan boʻlishi kerak;

- baholovchi xodimlar. Ushbu boʻlimda baholovchi xodimlarining qisqacha tavsifini oʻz ichiga olishi kerak. (jumladan: baholovchining malaka sertifikatlari).

- ishni yakunlash va hisobotni topshirish sanasi. Hisobotning ishonchliligini tekshirish va ekspertiza oʻtkazish shartlari koʻrsatilishi kerak.

- koʻrsatiladigan xizmat narxi. Koʻrsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati, shu jumladan QQS koʻrsatilgan holda.

4 Baholash davri.

01.05.2023 yil holatiga.

5. XIZMAT KOʻRSATISH MUDDATI.

Shartnoma tuzilgan kundan boshlab (20) yigirma kun ichida ushbu Texnik topshiriqning 1.1 boʻlimida koʻrsatilgan aktivlarning bozor qiymatini baholash.

6. XIZMAT KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR.

1. Baholash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'tkaziladi.
2. Aktivlarning bozor qiymatini aniqlashda barcha yondashuvlardan (narx, qiyosiy, xarajatlar yondashuvi) foydalanish kerak. Ba'zi yondashuvlardan foydalanish(yoki foydalanmaslik) baholovchi tomonidan asoslantirilgan bo'lishi kerak.
3. Har bir yondashuv doirasida baholovchi baholashning o'ziga xos usullarini mustaqil ravishda belgilaydi, ular ham asoslanishi kerak.
4. Baholash yondashuvlari natijalari o'xshash aktivlar/korxonalar bilan tuzilgan bitimlar asosida aniqlangan qiymat multiplikatorlaridan foydalangan holda umumiy muvofiqlik uchun sinovdan o'tkazilishi kerak.
5. Baholash natijalariga ko'ra hisobot tuziladi.
6. Hisobot shakli:
pdf. formatidagi yozma va elektron nusxa;
7. Xulosa tili - o'zbek yoki rus.

7. XIZMAT KO'RSATUVCHINING JAVOBGARLIGI

1. Buyurtmachi tomonidan biznes, aktivlar va majburiyatlar bo'yicha taqdim etilgan moliyaviy ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu aktivlarning kelajakdagi pul oqimlari prognozlarini tahlil qilish;
2. Kapitalni tahlil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan diskont stavkasini hisoblash.
3. Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan har qanday moliyaviy ma'lumotlarni sir saqlanishini kafolatlash.

8. TO'LOV SHARTLARI

Shartnoma umumiy summasining 15% miqdoridagi to'lov "Xizmat ko'rsatuvchi"ning maxsus hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 85% to'lov amalda ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy miqdori (Bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnoma, hisob varaqalari) bilan amalga oshiriladi.

Ishlab chiquvchi:

Iqtisod va rejalashtirish
bo'limi boshlig'i



X. Jabborov

Kelishildi :

Bosh hisobchi



Sh. Umarov

Moliya va g'aznachilik bo'limi boshlig'i




F. Norbo'tayev

Ishonchlilikni boshqarish xizmati boshlig'i



T. Diyorov

Bosh hisobchi o'rinbosari



N. Toirov

/ Iqtisod va rejalashtirish bo'limi iqtisodchisi



H. Roziqov